

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING  
QARORI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUKUMATINING AYRIM QARORLARIGA  
O‘ZGARTIRISHLAR KIRITISH TO‘G‘RISIDA (O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
PREZIDENTINING “MILLIY G‘OYA TARG‘IBOTI VA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLAR  
SAMARADORLIGINI OSHIRISH TO‘G‘RISIDA” 2006 YIL 25 AVGUSTDAGI PQ-451-  
SON QARORI)**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Milliy g‘oya targ‘iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida” 2006-yil 25-avgustdagi PQ-451-son qaroriga muvofiq Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining **ilovaga** muvofiq ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar kiritilsin.

**O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,  
2006-yil 7-noyabr,  
230-son

Vazirlar Mahkamasining  
2006-yil 7-noyabrdagi 230-son qaroriga  
ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o‘zgartirishlar**

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(1-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 16-sentabrdagi 731-sonli qaroriga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — O‘R QHT, 2017-y., 38-son, 1040-modda)*

2. Vazirlar Mahkamasining “Ma’naviyat va ma’rifat” jamoatchilik markazi huzuridagi “Oltin meros” xalqaro xayriya jamg‘armasini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida” 1996-yil 27-sentabrdagi 338-son qarorining **9-bandi** o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta ta’limni tashkil etish to‘g‘risida” 1998-yil 13-maydagi 203-son qaroriga 1-ilovaning 4-bo‘limi **4.9-bandidagi** “Ma’naviyat va ma’rifat” jamoatchilik markazi” so‘zlari “Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazi” so‘zlari bilan almashtirilsin.

4. Vazirlar Mahkamasining “Respublika “Oila” ilmiy-amaliy markazi Ishtirokchilar Kengashi tarkibi to‘g‘risida” 2001-yil 30-maydagi 242-son qaroriga **ilovaning** 13-bandidagi “Boliyev A.O. — Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat” markazi rahbari” so‘zlari “Hojimatov M. — Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazi rahbari” so‘zlari bilan almashtirilsin.

5. Vazirlar Mahkamasining “Din sohasidagi ma’naviy-ma’rifiy, ta’lim ishlarini va faoliyatni yanada takomillashtirishda ijtimoiy ko‘mak va imtiyozlar berish to‘g‘risida” 2003-yil 22-avgustdagi 364-son **qarorida**:

a) 1-ilova matnidagi “Ma’naviyat va ma’rifat” markazi” va “Q. A‘zamov” so‘zlari tegishlicha “Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazi” va “M. Hojimatov” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) 2-ilovadagi “A‘zamov Q. — Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat” markazi rahbari” so‘zlari “Hojimatov M. — Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazi rahbari” so‘zlari bilan almashtirilsin.

6. Vazirlar Mahkamasining “Bahouddin Naqshband yodgorlik majmuasi markazini tashkil etish to‘g‘risida” 2004-yil 27-maydagi 244-son **qaroriga** ilovadagi “Barotov Sharif — Ma’naviyat va ma’rifat” markazining” so‘zlari “Lavozim bo‘yicha — Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazining” so‘zlari bilan almashtirilsin.

7. Vazirlar Mahkamasining “Shohi Zinda yodgorlik majmuasida qayta tiklash va obodonlashtirish ishlarini tashkil etish to‘g‘risida” 2004-yil 16-iyuldagi 337-son qaroriga [1-ilovadagi](#) “A‘zamov Q.A. — Respublika “Ma‘naviyat va ma‘rifat” markazi rahbari” so‘zlari “Hojimatov M. — Respublika Ma‘naviyat targ‘ibot markazi rahbari” so‘zlari bilan almashtirilsin.

8. Vazirlar Mahkamasining “Mustaqillik kuni va Navro‘z umumxalq bayramlariga tayyorgarlikni tashkil etishni takomillashtirish to‘g‘risida” 2004-yil 23-iyuldagi 357-son qaroriga ilovadagi “A‘zamov Q.A. — Respublika “Ma‘naviyat va ma‘rifat” markazi rahbari” so‘zlari “Hojimatov M. — Respublika Ma‘naviyat targ‘ibot markazi rahbari” so‘zlari bilan almashtirilsin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(9-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 31-yanvardagi 23-sonli qaroriga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — O‘R QHT, 2012-y., 5-son, 46-modda)*

*(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2006-y., 45-son, 445-modda; 2012-y., 5-son, 46-modda; 2017-y., 38-son, 1040-modda)*